TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT O'QITUVCHI OMILI SIFATIDA

CHDPU Pedagogika fakulteti
Pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabalari
Ergasheva Jasmina O'ktam qizi,
Aliyeva Nozimaxon Mansur qizi
Ilmiy rahbar:CHDPU Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
S. B.Allayorova

Annotatsiya: Jamiyat rivojlanishida kelajak avlodning yuksak bilim sohibi bo'lib, real hayotda egallagan bilimlarini qo'llay olishi muhim. Shuning uchun ta'lim rivojlanishning poydevori sanaladi. Yuqori ta'lim natijalari kelajak rivoji ham demakdir. Rivojlanib borayotgan texnologik yutuqlar va ularning ta'lim jarayonida foydalanilishi dolzarb masalalardan biridir. Raqamli dunyoda raqamli savodxonlikka ega bo'lish va sun'iy intellektdan foydalanish ko'nikmalari, axloq normalari, akademik halollik kabi masalalar pirovard maqsad kasb etmoqda. Ushbu maqolada ta'lim muhitida sun'iy intellektning tutgan o'rni, o'qituvchilarni davrga mos darajada tayyorlash borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, kompitensiya, raqamli texnologiyalar, savodxonlik.

XXI asr – insoniyat tarqqiyotida raqamli dunyo, internet, sun'iy intellekt, rivojlanishning tezlashuvi davri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ilm-fan, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yangi bilimlarni ham taqdim etmoqda. Texnologiya yutuqlari jamiyatning har bir sohasiga kirib keldi. Iqtisodiyot, sport, tibbiyot, aloqa almashuv jarayonlari bilan bir qatorda ta'limda ham texnoloya vositalari faol integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu esa o'z navbatida texnologik yutuqlardan foydalanish savodxonligini rivojlantirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Ayniqsa, sun'iy intellektdan foydalanish ommalashuvining ta'lim jarayonidagi ahamiyati ham ortib bormoqda. Bu masala tadqiqotchilar tomonidan qizg'in muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'qituvchi va o'quvchi omili borasida ham qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [3;5]. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish, o'qituvchi omilining roli, texnologiya va shaxs (o'qituvchi) o'rtasidagi munosabat chuqur tahlilga muhtoj bo'lgan jarayon sanaladi.

Ta'lim muhitida o'qituvchining tutgan o'rni, sun'iy intellekt o'qituvchi omili o'rnini egallashi mumkinmi? Bilim egallash uchun oflayn darslar yagona yo'lmi? Bu kabi savollar bugungi kun tadqiqotchilari uchun dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

"Ta'limda sun'iy intellekt aqlli repetitorlik tizimlari, aqlli agentlar va aqlli hamkorlikdagi o'quv tizimlaridan foydalanib, o'quv muhitini qo'llab-quvvatlaydi va yaxshilaydi. Ta'lim sohasi sun'iy intellekt tadqiqotlaridan sezilarli darajada o'zgarishi aniqlangan. Sun'iy intellekt faqat bir fan bilan cheklanmaydi. kompyuter fanlari, tasvirni qayta ishlash, lingvistika, psixologiya va neyrofan kabi bir nechta fanlarni integratsiya qilish, fanlararo yondashuvni talab etadi"[4]. Yuqoridagi tadqiqotda sun'iy intellekt ta'lim jarayonida qanday yutuqlarni taqdim etishi mumkinligi haqida so'z boradi. Shuningdek, ta'lim olishda o'quvchining bilim egallashi uchun yordam beruvchi raqamli texnologiyalar, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'qib-o'rganish

jarayonini yaratadigan platformalar orqali ta'lim muhiti sifati yaxshilanishi borasidagi fikr-mulohazalar berilgan. Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish murakkab bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda yordam beradi.

"O'qituvchilar texnologiyalardan foydalanishning o'qitish va o'rganish faoliyatidagi ahamiyatini tan olishmoqda. Texnologiyalarni kurslarga integratsiya qilish hali ham bir nechta omillar, masalan, maktab madaniyati, resurslarning mavjudligi va o'qituvchilarning munosabati, bilim va ko'nikmalari sababli qiyin. Tondeur va boshqalar texnologiyani ta'limga integratsiya qilish uchun kelajak avlod o'qituvchilarni tayyorlash zarurligini ta'kidlagan"[4]. Tadqiqotlar o'qituvchilarning sun'iy intellektdan foydalanishga doir munosabatlarini o'rganmoqda. Texnologiyalar vositasida ta'lim olish, kutubxonalardan foydalanish, ma'lumotlar bilan ishlash, qisqa qilib aytganda bilim olish masoflari qisqaradi. Ammo bunday jarayonda ta'lim musssasasi va foydalanuvchilar tayyorgarligi ham muhim hisoblanadi. Ta'lim mussasalari kerakli texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lishi, o'qituvchilar tomonidan foydalanishga doir to'g'ri targ'ibot ishlari olib borilishi kerak. Demak, dastlab o'qituvchilarda texnologik yutuqlardan foydalanishga doir ko'nikmalar shakllangan bo'lishi lozim. O'qituvchilar o'quvchilarni yo'naltirish va texnologik yutuqlardan maqsadli foydalanish, axloqiy masalarni unutmaslik, akademik halollik haqida ta'lim olgan bo'lishi va bilimni samarali yetkazishda to'g'ri foydalana olishlari kerak.

"Ba'zi tadqiqotlar sun'iy intellekt texnikalaridan foydalanish 2030-yilga kelib jahon iqtisodiy ishlab chiqarishi 14 dan 16% gacha oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. Tarixan, texnologik innovatsiyalar iqtisodiyotlarning YaIMi oshirishi mumkin; ammo o'zgarishlar darhol yuz bermaydi. Bu investitsiya yoki malakali mutaxassislarni ishga olishga sabab bo'ladi. Ular bozor iqtisodiyoti talablari va ish o'rinlarini qayta taqsimlash jarayonida yangi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak"[2]. Yuqoridagi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kelajak raqamli dunyo talablari asosida o'sib boradi. Har bir soha rivoji kerakli mutaxassislarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi. Bunday tadqiqotlar natijalari beixtiyor kishini o'ylantiradi. Ta'limda sun'iy intellekdan foydalanishni rivojlantirishga doir qarashlar o'z yechimini topmasdan turib, kelajak avlod mutaxassislari raqamli texnologiya yutuqlaridan faol qo'llana oladigan kadrlarga muhtoj bo'lishi mumkinligi integratsiya jarayonini tezlashtirish kerakligiga ishora qiladi. Demak, davr sun'iy intelektdan foydalanishni o'rgatishga doir masalani ilgari surmoqda.

"Tadqiqotlar sun'iy intellekt yordamida qo'llanilgan vositalardan foydalanish va akademik yutuqlar o'rtasidagi bog'liqlik borasida ziddiyatli natijalarni taqdim etgan. Ba'zi tadqiqotlar sun'iy intellekt asosidagi vositalarga tayanish talabalar natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Biroq, boshqa tadqiqotlar sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish talim oluvchilarning samaradorligi va motivatsiyasining oshishiga sabab bo'lganligini ko'rsatgan"[1]. Bu boradagi qarashlar hamon chuqur bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xullas, qarashlar o'rtasidagi farqlar sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishdagi afzalliklar va salbiy oqibatlar borasida ham mulohaza yuritishga sabab bo'ladi (1-rasmga qarang).

1-rasm



1-rasm. Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va salbiy oqibatlari

Yuqoridagi rasmda (1-rasmga qarang) sun’iy intellektdan foydalanishning avzalliklari va salbiy oqibatlari borasida so‘z boradi.

Samaradorlik – sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali ish unumdorligiga erishish mumkin. Tahlil qilish, axborotlar bilan ishlash tezligi bu vaziyatda qo‘l keladi. Vaqtni tejagan holda katta natijalarga erishish mumkin.

Tejamkorlik – vaqt va resurs masalasida yordam beradi. Tenologiya inson omilidan tezroq amalllarni bajaradi.

Individual yondashuv – ta’lim jarayonida har bir o‘quvchi shaxsi iqtidoriga mos dasturlarni ishlab chiqishi mumkin.

Ishsizlik – texnologik vositalar inson omili o‘rnini egallashi orqali ishsizlikning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Qaramlik – shaxsiy fikrlarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Fikr-mulohaza yuritishda chegaralar vujudga keladi.

Xatoliklar – berilgan buyruqning noto‘g‘ri qabul qilinishi yoki xato buyruq berilishi orqali yanglish javoblar vujudga kelishi mumkin. Demak, texnologiya yutuqlaridan foydalanishda me’yor va axloq normalarini unutmaslik lozim.

Xulosa o‘rnida, sun’iy intellektning kunimizdagi ahamiyati yanada kengayib borayotganligi sir emas. Sun’iy intellektning roli tibbiyot, iqtisodiyot sohalarida ancha faol. Hozirda ta’lim sohasida ham foydalanishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqorida tahlil qilingan manbalarga asoslanib, bu boradagi qarashlarning xilma-xilligini aytib o‘tishimiz lozim. Ta’limda texnologik yutuqlardan faol qo‘llanishda ta’lim muasssasasi va ta’lim beruvchilarga doir masallarni ko‘rib chiqish kerak. Dastlab, ta’lim dargohlari kerakli texnologiya vositalari bilan to‘liq jihozlanishi, o‘qituvchilar esa raqamli ta’lim muhiti talablari asosidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bećirović, S., Polz, E. & Tinkel, I. Exploring students' AI literacy and its effects on their AI output quality, self-efficacy, and academic performance. *Smart Learn. Environ.* **12**, 29 (2025). https://doi.org/10.1186/s40561-025-00384-3
2. de Souza Zanirato Maia, J., Bueno, A. P. A., & Sato, J. R. (2023). Applications of Artificial Intelligence Models in Educational Analytics and Decision Making: A Systematic Review. *World*, *4*(2), 288-313. https://doi.org/10.3390/world4020019
3. Madalina Chitez, Karla Csürös, Roxana Rogobete,Upgraded literacy: teacher training approaches to integrating corpus data and AI tools for school text readability adaptation,Applied Corpus Linguistics,Volume 6, Issue 1,2026,100181, ISSN 2666-7991. https://doi.org/10.1016/j.acorp.2025.100181;
4. Salas-Pilco, S. Z., Xiao, K., & Hu, X. (2022). Artificial Intelligence and Learning Analytics in Teacher Education: A Systematic Review. *Education Sciences*, *12*(8), 569. https://doi.org/10.3390/educsci12080569
5. Vázquez-Cano, E., Gómez-Galán, J., Infante-Moro, A., & López-Meneses, E. (2020). Incidence of a Non-Sustainability Use of Technology on Students' Reading Performance in Pisa. *Sustainability*, *12*(2), 749. https://doi.org/10.3390/su12020749